

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANINING
O'QITISH METODOLOGIYASI**Isaxodjayeva Nargiza Xasanovna***Toshkent shahar Uchtepa tuman**4-son maktab tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fanining o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *tasviriy san'at fani, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya, amaliy me'morchilik.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль и значение изобразительного искусства в формировании мировоззрения учащихся общеобразовательных школ.*

Ключевые слова: *изобразительное искусствоведение, цветоведение, перспектива, композиция, прикладная архитектура.*

Abstract: *This article discusses the role and importance of visual arts in shaping the worldview of students in secondary schools.*

Key words: *visual art science, color science, perspective, composition, applied architecture*

KIRISH

Tasviriy san'atni o'qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelganliklari ko'proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o'rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlar ma'lum maydon yuzasini o'lchash va uni qog'ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirlay oladigan bo'lishlari talab etilgan. Rasm bolalarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bolgan. Masalan, harfni o'rgatish uchun narsalarning tasviri chizdirilgan.

Bu usuldan hozirgi zamonaviy ta'limda ham keng foydalanib kelinmoqda. Jumladan maktabgacha ta'lim muassasalari va boshlang'ich sniflardagi barcha darslarda rasimlardan keng foydalanib kelinmoqda.

Bolalarni rasm chizishga o'rgatishda qo'lni erkin harakat qilishiga alohida e'tibor berilgan. Erkin, yengil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qog'ozlarda bajarilgan. Misr maktablarida rasm chizishga o'rgatish nazariyasi bor-yo'qligi ma'lum bo'lmasada, ayrim rasm chizish qoidalari qo'llanilgan. O'qituvchilar rasm chizishni (shakl, rang, o'lcham, tuzilishi v.b.) tabiatni kuzatish asosida emas, ko'proq namunadan, sxemadan ko'chirish orqali o'rgatganlar. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Misrda rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistondan ancha avval boshlangan. Italiyalik XV asr

me'mori, artisti, yozuvchisi va olimi L.B.Alberti shunday deb yozadi: «Misrliklarning yozishicha, rang-tasvir ishlash ularda Yunonistondan 6 ming yil avval mavjud bo'lgan».

Rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistonda ham o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilgan. Ularda rasm ishlashga o'rgatishda tabiatni, butun borliqni o'rganishga, unda go'zalliklarni idrok etishga alohida e'tibor berilgan. Rasm ishlash uchun yog'och taxta ustiga asalari mo'mi surtilgan va uning ustini bo'yoq bilan sidirg'a bo'yalgan. Rasm ana shu yuza ustiga o'tkir metall yoki suyak bilan chizilgan. Eramizdan avvalgi 430-440 yillarda Yunon haykaltaroshi Poliklet inson tanasi a'zolari o'rtasidagi mutanosiblik, proporsionallikka doir namuna sifatida «Dorifor» haykalini yaratdi. Keyinchalik u barcha maxsus badiiy va badiiy bo'lmagan maktablarda o'rgatildi. Yunon rassomlari borliqni va turmushdagi go'zalliklarni kuzatish asosida tasvirlashni qonun va qoidalarini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha Qadimiy Yunon. Poliklet. Inson tanasining mutanosibligi, go'zallik, ko'proq xushbichim, tartib, ritm va simmetriya, bo'laklar o'rtasidagi mutanosiblik, to'g'ri matematik munosabatlarda ifodalanadi.

Keyinchalik Yunonistonda rasm ishlashning bir necha o'ziga xos maktablari paydo bo'lgan. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumatlarga nazar soladigan bo'lsak tasviriy san'at fanlari azal azaldan barcha turdagi fanlar bila chambarchas bog'liqligini va uni fan sifatida kelajak avlod hayotida kata ahamiyat kasb etishini kuzatish mumkin.

METODOLOGIYA

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Tasviriy san'at o'quv predmeti har har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak boladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi.

O'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarining vazifalari haqida to'xtalganda ularni shartli ravishda ikki qismga bolish mumkin.

1.Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari hisoblanib ular: borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushinish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish; tasviriy san'atning nazariy asoslari (yorug', soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish; rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar, malakalar hosil qilish; kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarini, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; tasviriy, amaliy

me'morchilik san'at asarlarini tushungan holda o'qiy olishga o'rgatish; san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish uni qadrlashga, sevishtga o'rgatish.

2. Tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari, ular; borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqloq mafkurasini amalga oshirish; bolalarga axloqiy (vatanparvarlik, baynalminnal); mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish; bolalarni turli kasb va hunarga yo'llash.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan bog'lanadi va ular yuzasidan materiallarni o'zlashtirishga samarali ta'sir kordatadi. Ayniqsa u o'qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san'at, hattoki, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo'lsada u axloqiy, mehnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Maktabda tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga yonaltirilgan asosiy o'quv predmeti hisoblanib, u quyidagi yonalishlarda amalga oshiriladi:

- O'quvchilarning tabiat, sanat va hayotdagi go'zalliklarni idrok etishga o'rgatish;
- O'quvchilarning estetik didini tarbiyalash, go'zallikni baholay olish qobiliyati, haqiqiy go'zallikni xunuk voqea va narsalardan farqlay bilishga o'rgatish;
- Shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o'zini ko'rsata bilishga, hatti-harakatini qo'llabquvvatlash va hayotga go'zallik kiritish malakalarini o'stirish;
- Bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish va boshqalar.

Tasviriy sanat oquv predmetining muhim vazifalaridan biri u bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivijlantirish hisoblanadi.

Tasviriy san'at darslarining eng muhim vazifalaridan biri tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlari asarlarini o'qishga o'rgatishdir. Tasviriy san'at asarlari ertak, hikoya, doston, roman kabi ma'lum bir mazmuni aks ettiradi. Biroq uni kitob o'qigandek oqib bo'lmaydi. Tasviriy san'at asarlarini o'ziga xos tili bor. Ularni bilgan kishilargina o'qiy oladilar. Xususan rassomlar, chiziqdar, ranglar, o'lchovlar, kompazitsiya, proporsiya, ritm, simmetriya shakl kabi ifodalilik vositalari yordamida asar mazmunini ochib beradilar.

Tasviriy san'at o'quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo'libgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san'at darslari yoshlarda milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalbinnal tarbiyada, do'stlik va o'zaro yordam g'oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Maktab tasviriy san'at dasturiga nazar solar ekanmiz unda Vatanimizning buyuk o'tmishi, vatandoshlarimizning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari, O'zbekistonning nafosatga to'la tabiati, xalqlar do'stligi g'oyalarini

ifoda etuvchi tasviriy san'at asarlari bilan to'lib toshganligining shohidi bo'lamiz. Masalan ona tuproq uchun kurash olib borgan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen, Muqanna kabi buyuk vatandoshlarimiz hayoti va obrazlarini, O'zbekistonning rango-rang go'zal manzaralarini, o'zbek xalqining Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv mehnat qilayotganligini tasvirlovchi tasviriy san'at asarlari mavjud. Ularni o'rganish jarayonida bolalar san'atning qonun va qoidalari bilan tanishadilar, yuqorida qayd qilingan mazmunda rasmlar ishlaydilar.

Chizmachilik o'qituvchisidan ham zamonaviy texnologiyalarni bilish va ulardan o'zining kasbiy faoliyatida o'rinli foydalana olish malakalariga ega bo'lishlik talab qilinadi. Umumta'lim maktablaridagi chizmachilik darslari o'zining xususiyatlariga ko'ra boshqa fanlardan birmuncha farqlanadi. O'rganilgan ma'lumotlarning asosiy qismlari bo'yicha o'quvchilar individual grafik ishlarni bajaradilar va ularni tekshirish jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlashiga to'g'ri keladi. Amalda o'quvchi chizmachilik fanini o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida maxsus jihozlangan chizmachilik kabinetida o'rganadi.

Darsda o'qituvchining nazariy ma'lumotlarni tushuntirganidan keyin shu mavzu bo'yicha o'quvchilar ish daftarlarida grafik ish bajaradilar. O'qituvchi har o'quvchining qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi biladi va uni o'quv jarayonida hisobga olishi yaxshi samara beradi. Lekin o'quvchilar bilan individual shug'ullanish vaqti chegaralangan.

O'qituvchi har bir o'quvchining ishini kuzatish va ularga chizma bajarishning ratsional yo'llarini ko'rsatish, mavzuning qiyin joylarini tushuntirish hamda bajarilgan ishlarni tekshirish imkoniyatiga ega. Shuning uchun o'qituvchining darsni tashkil qilishiga ko'p narsa bog'liq. Chizmachilik darslari maxsus jihozlangan chizmachilik kabinetlarida o'tiladi.

Chizmachilikdagi tushunchalarni murakkabligi, aniqlik darajasi yoki mavhumligi va boshqa sifatlari bo'yicha klassifikatsiyalab chiqilsa bu ayniqsa yosh o'qituvchilar uchun katta metodik yordam bo'lar edi. Chizmachilikdagi tushunchalarning ko'pchiligi buning ustiga proektsiyalash jarayonida yoki chizmani o'qishda ishlatilishiga qarab ma'nosi birmuncha o'zgarib ishlatiladi. Ayrim tushunchalar ma'nosi o'zgarimasdan qo'llaniladi (masalan, kompleks chizmaning bog'lash chiziqlari). Boshqa tushunchalar tasvirdagi vazifasiga qarab ko'p ma'noda ishlatilishi mumkin (proektsiyalar tekisligi, simmetriya tekisligi, kesuvchi tekislik, proektsiyalovchi tekislik va h.). Geometrik tushunchalarni sifat xarakteristikalarini bo'yicha taxminan quyidagicha guruhlash mumkin:

- asosiy geometrik figuralar, jismlar va ularning elementlari haqidagi tushunchalar: parallelogramm, silindr, qirra, asos, uch va h. Ularni o'quvchilar chuqur tushuntirishlarsiz, tasvirlari bo'yicha ham oson o'zlashtirib va esda saqlab qoladilar.

- chizma bajarish vositalariga taalluqli bo'lgan grafik tushunchalar: o'q chiziq, shtrix chiziq, diametr va radiusning shartli belgilanishi va h.

• metrik tushunchalar: masshtab, uzunlik, balandlik, gradus, kesma va yoyni qismlarga bo'lish.

• o'zaro fazoviy joylashish haqidagi tushunchalar: parallellik, perpendikularlik, kesmalarning kesishishi va ayqash vaziyati va h.

• harakatlanish tushunchalari: jipslashtirish, yoyish, kesishish va h.

• yasash tushunchalari: perpendikular tushurish va chiqarish, burchak yasash, o'lcham qo'yish, shtrixlash va h. Yuqorida chizmachilikda qo'llaniladigan geometrik tushunchalar haqida to'xtalib o'tildi. Proeksion tushunchalarni ham shu shaklda guruhlariga ajratib, tahlil qilib chiqish mumkin. Chizmachilik tushunchalarining ushbu ko'rinishdagi tahlil qilinishi o'quvchilarning ularni dars jarayonida ongli ravishda o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig'indisini o'zlashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirib va boyitib borishni, o'zining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o'rgatish kerak. Bu vazifa o'quvchilarning tasviriy san'at darslarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Z. Azimova "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi" Toshkent – Oqituvchi-1984.

2. B.Z. Azimova, R. Rajabov, S.F. Abdirasulov, Tasviriy sanatga oid atamalarning izohli lugati. Toshkent -1994.

3. S. Abdira'ulov Tasviriy sanat atamalari. Toshkent- 2003

4. X. Egamov. Boyoqlar bilan ishlash. –Toshkent . "Oqituvchi"1981.

5. R. Hasanov. "Maktabda tasviriy sanat oqitish metodikasi" Toshkent.- "Fan".2004.

6. www.aexiv.uz